



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDAGI
ISLOHOTLAR**

Xakimova Gulchehra Sayrixonovna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

E-mail: xakimovagulcehra557@gmail.com

Jabborova O'g'iloy Husan qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti matematika va informatika

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: jabborovaogiloy608@gmail.com

Asadova Shaxina Halim qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti matematika va informatika

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: asadovashaxina3@gmail.com

Anatatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida mamlakatda ta'lism sohasini rivojlantirish, zamонавиy ta'lism tamoyillarini joriy etish, ta'lism muassasalarini modernizatsiya qilish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, maktabgacha ta'lidan oliv ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlar bosqichma-bosqich takomillashtirish masalalari haqida so'z boradi. Prezident qarorlari va davlat dasturlari asosida ta'lism sisati va qulayligi oshirilmoqda, xususiy ta'lism muassasalariga keng yo'l ochilib, raqobatbardosh muhit shakllanmoqda. Shuningdek, xalqaro hamkorlik asosida xorijiy universitetlar filiallari ochilmoqda va akademik almashinuv dasturlari faol yo'lga qo'yilmoqda. Ta'lism tizimida raqamlashtirish, innovatsion yondashuvlar va pedagogik kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar. Ta'lism tizimi. Bosqichli ta'lism, Maktabgacha ta'lism, Umumiy o'rta ta'lism, O'rta maxsus ta'lism, Kasb-hunar ta'limi, Oliy ta'lism, Innovatsion ta'lism, Raqamli ta'lism, Pedagogik kadrlar, Davlat ta'lism standartlari, Ta'lism islohotlari. Xalqaro hamkorlik, Uzluksiz ta'lism, Masofaviy ta'lism



Kirish. Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.
<https://xs.uz/uz/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>

Prezident qarorlari va davlat dasturlari asosida ta’lim sifati va qulayligi oshirilmoqda, xususiy ta’lim muassasalariga keng yo‘l ochilib, raqobatbardosh muhit shakllanmoqda. Shuningdek, xalqaro hamkorlik asosida xorijiy universitetlar filiallari ochilmoqda va akademik almashinuv dasturlari faol yo‘lga qo‘yilmoqda. Ta’lim tizimida raqamlashtirish, innovatsion yondashuvlar va pedagogik kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim berish jarayoni yana-da takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan qadriyatları, insoniylik, ilmga intilish fazilati yana bir bor namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarimiz sog‘lom hamda go‘zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo‘yicha yetuk mutaxasis qilib, tarbiyalash, doimiy ish o‘rniga ega bo‘lish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kansitishga yo‘l qo‘ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta’lim olishni eng asosiy shart sifatida ko‘rmoqda. Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e’tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar



belgilab berilgan. Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko’tarish uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI Yurtimiz azal-azaldan ilm o‘chog‘i, jahon sivilizatsiyasi markazlaridan beri deb e’tirof etib kelingan. O‘rta asrlardan, xalqimiz ta’lim sohasida yuksak marralarga erishgan bo‘lib, jahon sivilizatsiyasi hamda fan sohasiga ulkan hissa qo‘sishgan. Misol tariqasida, IX-XII asrlarda Movarounnahrda ko’plab o‘quv maskanlari bo‘lib, ulardan chinakam olimlar, ulamolar yetishib chiqqan. Xusasan, Xorazm Ma’mun akademiyasi ham shu davrdagi yirik tadqiqot markazlaridan biri hisoblangan. Algebra fani bobakalonimiz Muhammad al-Xorazmiy nomi bilan atalganligi, bu azal-azaldan bizning qonimizda yaratuvchanlik, o‘qishga bo‘lgan qiziqishdan dalolatdir. Bundan tashqari, yana bir buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino o’sha olis XI asrda tibbiy jarrohlik operatsiyasiyalarini amalga oshirgani bilan dunyoga mashhur. Uning “Tib qonunlari” asari Yevropada “Injil” kitobidan keyin eng ko‘p nashr etilgan kitoblardan biri bo‘lib, 500 yil davomida dunyoning ko‘plab nufuzli oliy o‘quv yurtlarida barcha talabalar uchun darslik sifatida o‘rganib kelingan. Buyuk mutafakkir Al-Farg’oniy astronomiya fanida birinchi bo‘lib, geliosetrik nazariyani asoschisi bo‘lgan ya’ni Yerni Quyosh atrofida aylanishini aniq hisob — kitoblar bilan isbotlab bergen. XV asrdayoq Samarqandda Mirzo Ulug’bek observatoriya barpo etib, yulduzlar xaritasini tuzgan. U yulduzlar joylashuvini shu qadar aniq hisoblanganki, hozirgi fan-texnika bu ma’lumotlarni atiga bir necha daqiqalarga farq qilishini isbotlagan. Bundan ko’rinib turibdiki, bizning ota-bobolarimiz jahon sivilizatisiyasiga ulkan hissa qo’shgan. Mustaqillik yillarda ma’naviy poklanish haqida gap ketganda O’zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishining ahamiyati kattadir. 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonun milliy ongning rivojlanishida, mamlakat mustaqilligining mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishi va jamiyatning ma’naviy yangilanishida muhim rol o’ynadi.

“Yurtimizda aholining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo’lsak, ayni ularning 72 foizi maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, litsey, kollej va universitetlarda taqsil olmoqdalar. Bu esa ta’lim sohasida



amalga oshirilayotgan islohotlarning roli va ahamiyati o'z-o'zidan tushunarli va ravshan bo'ladi. Yurtimizda ta'lim sohasida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar 2012 yil 16–17 fevralda Toshkentda o'tkazilgan «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro anjumanda dunyoning eng ilg'or ta'lim tizimlari va muassasalari vakillari tomonidan chuqur e'tirof etildi. Konferensiyada O'zbekistonning ta'lim tizimi, jumladan, qishloqlarda ham bolalar va yoshlarning barcha bosqichlarda bepul umumiyligi ta'limi va o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi olish joriy etilganligi xorijiy mutahassislar tomonidan yuksak baholandi.”[1]

Dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan kelgan vakillar ham miliy ta'lim tizimimizni namuna sifatida tan oldi va bir qator davlatlar uchun o'rnak bo'la olishini ta'kidlandi. Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlarga berilgan bunday yuksak baho, albatta, O'zbekistonda yashovchi har bir insonni qalbida g'urur uyg'otadi va shu bilan birga, zimmamizga katta mas'uliyatni ham yuklaydi. Oldimizda turgan eng muhim masala — erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, yaratilgan shart-sharoitga mos ravishda ta'limning sifati, tizimning samaradorligi va «ta'lim — fan — ishlab chiqarish» zanjirining mustahkamligiga erishishdan iboratdir.

MUHOKAMALAR VA NATIJALARY Yurtimizda barkamol xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish, ularni iqidorlarini namoyon qilish va muntazam rag'batlantirib turish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi «Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmoniga muvofiq 2015-yilda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 14 nafar o'quvchisi Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Umuman, 2000-yildan buyon tizimdagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan jami 95 nafar o'quvchi qiz ushbu nufuzli mukofotni qo'lga kiritdi. Zamонавиyl bilim maskanlarida jahon standartlari asosida ta'lim-tarbiya olayotgan xalqaro miqyosda tashkil etilayotgan nufuzli tanlovlari, fan olimpiadalari, musobaqa va festivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, yuksak intellektual salohiyati, keng tafakkuri va zehni bilan dunyo ahli havasini uyg'otmoqda. Jumladan, 2013-yil aprel oyida Toshkent



shahrida ilk bor o'tkazilgan 47-xalqaro Mendeleyev olimpiadasida o'zbekistonlik yoshlari ham qatnashib 2 ta oltin, 5 ta kumush, 8 ta bronza medalni qo'lga kiritdi va 17 davlat ichida O'zbekiston bayrog'ining baland ko'tarilgani barchamizga faxr-iftixor bag'ishlaydi. 2016-yil 1–6-mart kunlari Kiprning Protaras shahrida matematika fani bo'yicha "SEEMOUS" 10-xalqaro olimpiada bo'lib o'tdi. Kipr ta'lim va madaniyat Vazirligi, Matematika jamiyati hamda Janubi-Sharqiy Yevropa Matematika jamiyati tomonidan tashkil etilgan mazkur intellektual bellashuvda yigirmadan ortiq mamlakatdan 43 universitet jamoasining 150 dan ziyod iqtidorli talabalari ishtirok etdi. Tanlovdan O'zbekiston yoshlari ham shohsuppa qatoridan joy olishdi. O'zbekiston Milliy universitetining mexanika-matematika fakulteti 2-kurs talabalari Hakimboy Egamberganov va Shohruh Ibrohimov bittadan oltin medal, Mirmuhsin Mahmudov maxsus diplom bilan taqqirlandi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yosha yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Umumiy o'rta ta'lim hamda o'quvchilarning bilim ko'nikma malakalarini shakllantish fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilimlarni o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijtimoiy fikrlash va atrof-muhitga Ongli munosabatda bo'lishni va kasb tushunchalarni shakliantiradi.

Akademik litseylarda ham davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holdaularning jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlagan ta'lim yo'-nalishi bo'yicha ijtimoiy, texnika, agrar va boshqa sohalar bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga



qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imko-niyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliv ta'limga muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyati jarayonida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Hozirgi kunda maktabdan tashqari ta'limga bo'lgan yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'limga muassasalarini tashkil etadilar. Maktabdan tashqari ta'limga rivojlantirish, ularning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak: Maktabdan tashqari ta'limga rivojlantirish, ularning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak: Maktabdan tashqari ta'limga rivojlantirish, ularning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

XULOSA. Yurtimizda uzlucksiz va uzviylik tamoyillariga tayangan ta'limga tizimi yaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatda ma'naviy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, davlatimizning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Bugungi kunda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'limga muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'limga muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilyapti. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'limga shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilyapti. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi. Professor-o'qituvchilarining xorijdagi oliy ta'limga hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori. 2018-yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan



boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga yetkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lmini yana-da kengaytirdi. Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygochlар va ta'lim tizimining quyи bo'g'инлари о'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo'ldi. Demak, xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yana-da keng ko'lamma davom ettirish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida yohud Sho'ralarning so'ngi talvasasi. Islom Karimov so'zlagan nutqi. 1991.
2. Xodjayev.B.X. Umumiy pedagogika . „Sano-standart,, nashriyoti 2017y 6- bet
3. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat mafkura. T. 1996y, 82-bet.5. O'zbekistonda ta'lim statistikasi. 2015y
4. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Karimov I.A. T, 1992y, 13 bet.
5. Hakimova, Gulchehra, and Gulandom Raxmatova. "RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDAGI O'RNI HAMDA YANGI TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM JARAYONLARI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI." Молодые ученые 3.18 (2025): 102-105.
6. Xakimova, Gulchehra. "ZAMONAVIY JAMIyatda INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TURIZMING ROLI." YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
7. Muzaffarovna, Jalolova Pokiza, Turayev Ziyavutdin O'ktamxonovich, and Norova Dilobar Baxromovna. "TALIS TOPSHIRIQLAR DORASIDA TUZILGAN TOPSHIRIQLARDAN NAMUNALAR." Pedagogs 82.1 (2025): 193-197.



8. Kодиров, Farrukh, Dilobar Norova, and Akbar Kодиров. "SOFTWARE ENGINEERING: BASIC CONCEPTS." Журнал академических исследований нового Узбекистана 2.5, 2-qism (2025): 154-157.
9. Qодиров, Farrux, and Dilobar Norova. "AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI, AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA INSONNING TUTGAN O 'RNI." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.15 (2024): 16-19
10. Kодиров, Farrukh, Sherquzi Rakhmatov, and Dilobar Norova. "IOT (INTERNET OF THINGS) NETWORKS AND THEIR ADVANTAGES." Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.5-3 (2025): 58-61.
11. Turayev Ziyavutdin O'ktamxonovich, Norova Dilobar. Baxromovna. "OCHIQ DARSNI O'TKAZISH TAFSIOTLARI VA MATEMATIKA FANIDA OCHIQ DARS O'TISH METODLARI." International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. 13. 2. (2025): 428-432.
12. Baxromovna, Norova Dilobar. "CHIZMA GEOMETRIYASI. MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYALAR VA ULARNING XOSSALARI." IMRAS 8.3 (2025): 91-95.
13. Baxromovna, Norova Dilobar. "YEVKLIDNING "NEGIZLAR ASARI". NOEVKLIDIY GEOMETRIYANING VUJUDGA KELISHI. NI LOBACHEVSKIY VA LOBACHEVSKIY AKSIOMASIDAN KELIB CHIQADIGAN HULOSA." AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE3.2 (2025): 181-185.
14. Xoliqulovna, Normurodova Sadoqat, and Norova Dilobar Baxromovna. "APP GYVER PLATFORMA IMKONIYATLARINI O'RGANISH." Modern education and development 17 (2025): 152-159.
15. DILOBAR BAKHROMOVNA, [01.03.2025 11:38]
16. Jabborov Maksud Bahriiddinovich; Khakimova Gulchekhra Sayrikhonovna; Norova Dilobar Bakhromovna. "PROBLEMS OF TEACHING AND EDUCATING



CHILDREN WITH DISABILITIES IN INCLUSIVE EDUCATION.” EDUCATION SCIENCE AND INNOVATIVE IDEAS IN THE WOR. 2.1 (2025): 306-310.